

# INTERFAOL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALARING KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xurramova Dilso'z Baxtiyor qizi**

*Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Interfaol texnologiyalar hozirgi zamoning eng dolzarb yo'nalishi sifatida faoliyat olib boryapti. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Talabalarning kasbiy tayyorgarligida interfaol texnologiyadan foydalanish va bu orqali ularning pedagogic mahoratini oshirish hozirgi zamoning dolzarb mavzusi bo'lib qolmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *axborot, innovatsiya, texnologiya, klaster, nutq, mantiqiy fikr, interfaol usullar, sog'lom muloqot.*

Hozirgi ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini bajaradi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Ushbu maqolada keltirilgan zamонавиy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlanirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisiga kerakli bo'lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Ma'lumki, interfaol texnologiyalarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergen. Keng qo'llaniladigan usullar - "Klaster", "Aqliy hujum", "Davom ettir", "Taqdimot", "Blits-so'rov", "Muammoli vaziyat" kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida "Sinkveyn", "Teskari test", "Aql charxi" metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida "Insert", "Pinbord", "Zinama-zina", "Bumerang" texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti", "Nima uchun?", "Qanday?", "Konseptual jadval", "Nilufar guli" kabi grafik tashkil etuvchilar hamda "Tushunchalar tahlili",

“T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uygaz vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Pedagogika darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo'lib, bunda ishlatalidigan texnologiya o'quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatini va sharoitga qarab tanlanadi.

### **“Ta'rif va ijodkor” usuli**

Bu usuldan foydalanishda sinf guruhlarga bo'linib, oldindan topshiriqlar beriladi. Guruhlar shartli ravishda nomlanadi, masalan, “Ta'rif beruvchilar” va “Ijodkor” guruh. Birinchi guruh ikkinchi guruhga ta'riflarni aytadi. Shundan so'ng guruhlar ushbu ta'rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topadi. Agar birinchi berilgan ta'rifdan so'ng darrov bu ta'rifning qaysi yozuvchi yoki shoirga tegishli ekanligini topishsa, — 5 ball, ikkinchi ma'lumotdan so'ng topishsa, — 4 ball va uchinchi urinishda topsalar — 3 ball yig'ishadi. O'qituvchi ta'rif qaysi ijodkorga tegishli ekanligini topgan guruhdan yana ijodkor hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar qo'shimcha qilishini so'raydi va baholab boradi. Bu metod orqali har bir o'quvchi ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik jarayon, avvalo, jonli muloqotni taqozo etadi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalar va an'anaviy metodlar bilan uyg'unlashtirgan holda tatbiq etish yuqori samara berib kelmoqda. Ayniqsa, nutq o'stirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli mavzularni yoritishda kompyuter kuchli o'quv vositasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchining og'zaki nutqini o'stirish uchun shart-sharoit o'quvchilarga zarur yordamni tez hamda qulay usul bilan yetkazishdan iborat. Buning uchun dars jarayonida mavzu mazmunidan kelib chiqib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur bo'ladi. Shundagina o'quvchining shaxsiy layoqati, bilim saviyasiga mos ravishda mashq va topshiriqlar berish orqali o'zbek tilini o'rganish jarayonini yuksak saviyada tashkil etish mumkin. Rus va qardosh tillarga mansub o'quvchilarga o'zbek tilini o'rgatishda o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyaning ilg'or usullarini qo'llash hamda axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalanish darslarni samarali tashkil etishga yordam beradi.

Pedagogik ta'lim jarayonida suhbat metodidan keng foydalaniladi. Suhbat metodi og'zaki bayon qilish metodi bo'lib, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltiradi, o'qituvchi tomonidan berilgan savolga javob topish jarayonida o'quvchi fikr yuritadi, o'z fikrini bildirib, uni dalillashga harakat qiladi. Bu o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bahs - biror muammoni guruh bo'lib yechimini izlash usulidir. Bunda har bir o'quvchi suhbatdoshining fikrini asoslashi yoki uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashga harakat qiladi.

Ko'rsatmalilik metodi turli ko'rgazmali vositalar yordamida amalga oshiriladi. Yangi so'zlarni ongli va puxta o'zlashtirish ko'rgazmalilikni taqozo etadi. Bunda turli buyumlar, jadvallar, rasmlar va boshqa tasviri vositalardan, diafilm, kinofilm va telelavhalardan, multimedia vositalaridan foydalanish mumkin.

Ta'limiylididaktik o'yinlardan ko'proq amaliy mashg'ulotlarda foydalaniladi. O'yin, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilar faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. O'yin o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiylididaktik o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtirishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi.

Shundan kelib chiqib, pedagogika darslarida talabalarning nutqiy ko'nikmalarini va kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun ta'lim oluvchilarda interfaol texnologiyalardan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'limiylididaktik o'yinlar, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi, ular dunyoni va o'zlikni anglashda, o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiylididaktik o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi, ular o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq ulardan o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin. Shunday ekan talabalarga interfaol texnologiyani qo'llash samaradorligini yuqori bo'ladi.

Ta'limiylididaktik o'yinlarni qo'llashda me'yorni bilish kerak, ularni haddan ziyod ko'paytirib yuborish o'quvchini dars maqsadidan chetlashtirib qo'yishi mumkin. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich sinflarida o'zbek tili darslarini o'tishda quyidagi didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb o'layman.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Khurramova Dilsuz Bakhtiyor kizi. Human dignity-the main objective of the "development strategy" Galaxy journal. 2022 march. 97-99.
2. Khurramova Dilsuz Bakhtiyor kizi. The importanse using the heritage of our ancestors in the spiritual education of students. Web of scientist. International scientific research journal. 840-843.
3. Eshmuhammedov R. Abduqodirov A. Pardayev A. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" 2008.
4. Musurmonova O. "Pedagogik texnologiyalar ta'lim samaradorligi omili" 2020. Toshkent.